

Mustaqil O'zbekistonda tashqi savdo aloqalarining rivojlanish tarixi

Annotatsiya:

Ushbu maqola mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi tashqi savdosining shakllanishi, rivojlanishi va istiqbollari masalalarini tadqiq etadi. Keyingi yillar uchun tuzilgan rejalar: tashqi savdo sotiqni liberallashtirishi va uni qonunniy himoyalash, iqtisodiy rivojlanish nazariyalarin va export sohasini rivojlantirish uchun amalga oshirilgan ishlarni tahlil qiladi. O'zbekistonda olib borilgan barcha savdo sotiq ishlarini, xorijiy davlatlar bilan bolgan shartnoma bitimlarni, O'zbekiston export va import yo'nalishi boyicha fuqarolarga yaratilgan shart sharoitlarni, export miqdorini kengayishi va tashqi savdo yo'nalishi bo'yicha keyingi olib boriladigan ishlarni ko'rib chiqadi.

Kalit so'zlar: tashqi savdo, eksport, import, savdo aylanmasi, erkin savdo, diversifikatsiya, raqobatbardoshlik.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, iqtisodiyotning dunyo bozoriga aralashuvi yangi bosqichga ko'tarildi. Tashqi savdo aloqalari, davlatning iqtisodiy va siyosiy xavfsizligi, tabiiy resurslarning balansi davlatning jahon hamjamiyatidagi mavqeini belgilovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Dastlabki yillar ichki bozorni mustahkamlash, ishlab chiqarishning uzluksiz faoliyatini ta'minlash va asosiy strategik mahsulotlarni import orqali xarid qilishga asoslangan davr bo'lgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan eksport salohiyatini kengaytirish, iqtisodiyotni diversifikatsiya

qilish jarayonlari kuchaydi. Mustaqillikning turli yillarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar tashqi savdo rivojiga katta hissa qo`shib kelmoqda.

Mustaqillikning ilk davrida mamlakatda import o`rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish asosiy yo`nalish bo`ldi. Bu orqali korxonalar faoliyati uchun zarur resurs bazasi yaratildi. Ichki ishlab chiqarish tarmoqlarining barqarorligi o`sishi natijasida eksport tarkibida ham sezilarli o`zgarishlar kuzatildi. O`zbekiston eksportida qishloq xo`jaligi, xususan paxta mahsulotlari yetakchi bo`lib kelgan bo`lsa-da, importga yo`naltirilgan sanoatni modernizatsiya qilish orqali qayta ishlangan tovarlar ulushi ham oshib bordi. Ayniqsa, Surxondaryo viloyati misolida tashqi savdo ulushi yildan yilga ko`paygani kuzatildi. Qo`shni davlatlar bilan transport, sanoat va madaniy hamkorlikning kengayishi, Afg`oniston bilan savdo-sotiqning faollashuvi eksport geografiyasini kengaytirishda muhim o`rin tutdi.

O`zbekiston tashqi savdo siyosatida liberallashtirish jarayonlari chuqur tus oldi. Savdo jarayonlaridagi byurokratik to`siqlar bartaraf qilindi, bojxona tizimi optimallashtirildi, eksportyorlar qo`llab-quvvatlandi. Uzoq yillik islohotlar natijasida tashqi savdo aylanmasi va uning tarkibi tubdan o`zgardi.

Statistikaga e`tibor qaratadign bolsak:

- 2024-yilning yanvar–mart oylarida tashqi savdo aylanmasi 15,8 mlrd AQSh dollari, eksport – 6,4 mlrd (10% o`sinh), import – 9,4 mlrd dollar (3,8% o`sinh) bo`lgan.

- O`zbekiston 184 davlat bilan savdo qiladi, yirik hamkorlar: Xitoy (19%), Rossiya (17,7%), Qozog`iston (5,9%), Turkiya (4,1%), Koreya (3,4%).

- MDH davlatlari bilan aylanma 32,2% ni tashkil qiladi.

- Eksport tarkibida boshqa tovarlar 41,9%, sanoat tovarlari 16%, kimyo mahsulotlari 5,7% ulushga ega.

Bu ko`rsatkichlar mamlakatning xalqaro savdo aloqalari kengayib, iqtisodiyot tashqi bozorlar bilan integratsiyalashayotganidan dalolat beradi. Tashqi savdo rivojida O`zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo`mitasi,

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Tashqi savdo vazirligi ma'lumotlari asosiy o'rin tutadi. Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi singari tashkilotlar bilan hamkorlik mamlakat savdo siyosatining ilmiy-analitik asoslarda olib borilishiga xizmat qilmoqda. Nazariy tadqiqotlarda E.Helpman, P.Krugman, M.Melitz kabi iqtisodchilarning ilmiy ishlari qo'llanilmoqda. Mintaqaviy tashqi savdo aloqalarining kuchayishi yaqin qo'shnilar bilan savdo aloqalari O'zbekiston iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, Afg'oniston, Qirg'iziston va Tojikiston bilan faol savdo balansi mavjudligi mamlakat uchun katta yutuqdir:

- Afg'oniston – 772,3 mln dollar
- Qirg'iziston – 610,1 mln dollar
- Tojikiston – 307,2 mln dollar
- Eron – 33,2 mln dollar

Termiz orqali Afg'oniston bilan aloqalar kuchayishi mintaqaviy integratsiyaga hissa qo'shmoqda. Surxondaryo viloyatida Afg'oniston fuqarolarini o'qitish markazi faoliyati ham aynan iqtisodiy hamkorlik bilan uzviy bog'liq. O'zbekistonning ShHT va mintaqaviy xavfsizlik platformalaridagi pozitsiyasi muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida zamonaviy sanoat korxonalari ishga tushirilishi eksport tarkibini boyitmoqda.

- Sherobod sement zavodi – 1,5 mln tonna sement ishlab chiqarish quvvati, 1200 ish o'zni
- “Sharq'unko'mir” AJ – yuqori kaloriyali ko'mir eksporti (Pokistonga tajriba tariqasida 300 tonna)

Bu loyihalar eksport hajmini oshiradi, import mahsulotlariga ehtiyojni kamaytiradi, chet davlatlar bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlaydi.

Tashqi savdo dinamikasi va yangi natijalar 2023-yilda tashqi savdo aylanmasi:

Ko'rsatkich	2022	2023	O'sish
-------------	------	------	--------

Tashqi savdo aylanmasi	50,5 mlrd	62,567 mlrd	23,9%
Eksport	19,7 mlrd	24,4 mlrd	23,8%
Import	30,7 mlrd	38,1 mlrd	24%
Saldo	-11 mlrd	-13,7 mlrd	Manfiy

Bu natija tarixiy rekord bo'ldi.

Shuningdek, O'zbekiston 2020-yilda Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi maqomiga ega bo'ldi. MDH davlatlari bilan aylanma 11,83 mlrd dollarni tashkil etdi, ulush 29,5%ga oshdi. Yevropa Ittifoqi bilan aylanma 9,83 mlrd dollarni tashkil etdi. Bular tashqi savdo aloqalarining geografik jihatdan kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Muammolar: Balans va hududiy nomutanosiblik natijalar ijobiy bo'lishiga qaramay, ayrim cheklovlar mavjud: Savdo saldosing manfiyligi yuqori import tarkibida mashina va transport vositalarining ulushi yuqori MDH bozorlariga haddan tashqari qaramlik mavjud. Tashqi savdo mamlakat bo'yicha teng taqsimlanmagan. Masalan, Toshkent tashqi savdo hajmining 34,2% ini tashkil etsa, Surxondaryoda bu ko'rsatkich atigi 1,2% ga teng.

Keyingi ustuvorliklar va rivojlanish uchun quyidagi asosiy maqsadlar qo'yilgan: Eksportni rag'batlantirish: subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, sug'urta mexanizmlari.

Eksport bozorlarini kengaytirish: yangi va noan'anaviy mintaqalarga kirib boorish.

Erkin iqtisodiy zonalar ish faoliyatini samaraliroq qilish. Jahon savdo tashkilotiga to'liq a'zo bo'lib qo'shilish. Qayta ishlangan mahsulotlar nisbiy ulushini oshirish.

Xizmatlar, axborot texnologiyalari va turizm eksportini rivojlantirish.

Ushbu vazifalar O'zbekistonning xalqaro savdoda mustahkam mavqega ega bo'lishiga xizmat qiladi.

Xulosa

Mustaqillik yillarida olib borilgan izchil siyosat tufayli O'zbekistonning tashqi savdo aloqalari chuqur o'zgarishlarga yuz tutdi. Tashqi savdo aylanmasi, eksport va import hajmlari muntazam o'sib bormoqda. Mamlakat tobora global iqtisodiyotga integratsiyalashib, yangi hamkorlik yo'nalishlarini izlamoqda. Ayni paytda mavjud muammolarni hal qilish uchun ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga mos mahsulotlar chiqarish, texnologiyalar transferini kengaytirish, kadrlar salohiyatini oshirish kabi vazifalar dolzarb hisoblanadi. O'zbekiston tashqi savdosining istiqbollari keng. Rivojlanish bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar asosida mamlakat xalqaro iqtisodiy tizimda yanada mustahkam o'rin egallashi shubhasiz. Bu esa milliy manfaatlar va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Abdulmansurxon o'g'li, Toshxo'jayev A. "O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasida importning o'rni." Universitet tadqiqot bazasi (2024): 923–926.
2. Umarov B. O'zbekistonning tashqi savdosi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. 192 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Ozod va obod, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2016.
4. Mirziyoyev Sh.M. Biz buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2017.
5. Isayev O. Surxon vohasidagi madaniy hayot: arxiv materiallari asosida yutuq va muammolardan axborot berish. Islom nuri, 2019(4).
5. Vaxobov A. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. – T., 2020. –304b.

6. Xodiyev B. Innovatsion iqtisodiyot asoslari. O'quv qo'llanma. – T., 2022. – 346 b. 23.

7. Sharifxo'jayev M. Tashqi iqtisodiy faoliyat. Darslik. – T.: TDIU, 2022. – 415 b

8. Raushana K. Transformation processes of women's mentality in Uzbekistan. EPRA International Journal of Socio-Economic and Environmental Outlook (SEEO), 10(4), 2023: 43–45.

9. Yusubov J. K., Bobomurodov E. H., Kurbaniyazova R. K., Khadjiev U. S., Samanova S. B. The Role of Central Asian Scholars in Modern Education. Res Militaris, 12(3), 2022: 3762–3769.